TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-oktabr oylari*
*uchun dastlabki ma'lumot*

# TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va*
*savdo statistikasi bo'limi:*
*(71) 203-88-20(21)*



# TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Toshkent shahrida bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-oktabr oylarida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **20 910,2** mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **1 596,8** mln AQSH dollariga yoki **8,3** % ga ko‘paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

*(yanvar-oktabr 2024 y., mln AQSH dollari)*

**Tashqi savdo aylanmasi**

2024- y.: 20 910,2 *+8,3 %*

(2023- y.: **19 313,4**)

**Saldo**

2024- y.: **-11 990,4** (2023- y.: **-11 109,4**)

**Eksport**

2024- y.: 4 459,9 *+8,7 %*

(2023- y.: **4 102,0**)

***TSAdagi ulushi, % da***




**Import**

2024- y.: 16 450,3 *+8,1 %*

(2023- y.: **15 211,4**)



***Tashqi savdo aylanmasi*** *– muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.*

TSAda eksport hajmi 4 459,9 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 8,7 % ga ko‘paydi) va import hajmi 16 450,3 mln AQSH dollariga (8,1 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -11 990,4 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

*(2024- yil yanvar-oktabr oylari, mln AQSH dollari)*

| Rossiya | XXR | Qozog‘iston | Turkiya | Turkmaniston |
|---|---|---|---|---|
| TSA – 5 123,0 | TSA – 4 326,3 | TSA – 1 532,4 | TSA – 1 082,9 | TSA – 756,9 |
| Eksport: 928,2<br>Import: 4 194,8 | Eksport: 624,9<br>Import: 3 701,4 | Eksport: 339,1<br>Import: 1 193,3 | Eksport: 330,6<br>Import: 752,3 | Eksport: 31,3<br>Import: 725,6 |
| 24,5 % | 20,7 % | 7,3 % | 5,2 % | 3,6 % |

| Germaniya | AQSH | BAA | Hindiston | Afg‘oniston |
|---|---|---|---|---|
| TSA – 564,4 | TSA – 456,3 | TSA – 400,9 | TSA – 381,3 | TSA – 363,6 |
| Eksport: 32,1<br>Import: 532,3 | Eksport: 122,0<br>Import: 334,3 | Eksport: 123,8<br>Import: 277,1 | Eksport: 15,7<br>Import: 365,6 | Eksport: 350,5<br>Import: 13,1 |
| 2,7 % | 2,2 % | 1,9 % | 1,8 % | 1,7 % |

Toshkent shahri jahonning 181 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (24,5 %), XXRda (20,7 %), Qozog‘istonda (7,3 %), Turkiyada (5,2 %) va Turkmanistonda (3,6 %) qayd etilgan.

# TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

*(yanvar-oktabr, mln AQSH dollari)*

| Davlatlar | 2022- y. | 2023- y. | 2024- y. |
|---|---|---|---|
| **Rossiya** | **3 649,6** | **3 933,0** | **5 123,0** |
| *Eksport* | *824,3* | *872,8* | *928,2* |
| *Import* | *2 825,3* | *3 060,2* | *4 194,8* |
| **XXR** | **3 331,2** | **4 807,3** | **4 326,3** |
| *Eksport* | *676,7* | *615,6* | *624,9* |
| *Import* | *2 654,5* | *4 191,7* | *3 701,4* |
| **Qozog'iston** | **1 454,4** | **1 375,2** | **1 532,4** |
| *Eksport* | *311,2* | *324,0* | *339,1* |
| *Import* | *1 143,2* | *1 051,2* | *1 193,3* |
| **Turkiya** | **1 032,4** | **1 191,7** | **1 082,9** |
| *Eksport* | *274,8* | *327,5* | *330,6* |
| *Import* | *757,6* | *864,2* | *752,3* |
| **Turkmaniston** | **501,4** | **777,4** | **756,9** |
| *Eksport* | *81,7* | *90,8* | *31,3* |
| *Import* | *419,7* | *686,6* | *725,6* |
| **Germaniya** | **587,0** | **488,6** | **564,4** |
| *Eksport* | *44,2* | *28,6* | *32,1* |
| *Import* | *542,8* | *460,0* | *532,3* |
| **AQSH** | **271,4** | **285,5** | **456,3** |
| *Eksport* | *46,8* | *75,3* | *122,0* |
| *Import* | *224,6* | *210,2* | *334,3* |
| **BAA** | **348,9** | **376,5** | **400,9** |
| *Eksport* | *71,8* | *143,6* | *123,8* |
| *Import* | *277,1* | *232,9* | *277,1* |
| **Hindiston** | **362,1** | **331,8** | **381,3** |
| *Eksport* | *12,3* | *13,8* | *15,7* |
| *Import* | *349,8* | *318,0* | *365,6* |
| **Afg'oniston** | **264,1** | **307,7** | **363,6** |
| *Eksport* | *262,3* | *304,6* | *350,5* |
| *Import* | *1,8* | *3,1* | *13,1* |

*Davomi*

| Davlatlar | 2022- y. | 2023- y. | 2024- y. |
|---|---|---|---|
| **Litva** | **190,3** | **272,1** | **328,2** |
| *Eksport* | *31,5* | *49,2* | *118,2* |
| *Import* | *158,8* | *222,9* | *210,0* |
| **Belarus** | **237,7** | **267,5** | **311,4** |
| *Eksport* | *43,4* | *33,1* | *47,9* |
| *Import* | *194,3* | *234,4* | *263,5* |
| **Koreya Respublikasi** | **356,4** | **326,3** | **305,6** |
| *Eksport* | *16,4* | *19,6* | *19,6* |
| *Import* | *340,0* | *306,7* | *286,0* |
| **Chexiya** | **91,6** | **176,7** | **276,6** |
| *Eksport* | *19,7* | *39,2* | *43,8* |
| *Import* | *71,9* | *137,5* | *232,8* |
| **Tojikiston** | **240,9** | **253,8** | **260,7** |
| *Eksport* | *187,7* | *209,1* | *192,2* |
| *Import* | *53,2* | *44,7* | *68,5* |
| **Buyuk Britaniya** | **140,4** | **292,3** | **254,5** |
| *Eksport* | *68,8* | *111,3* | *123,0* |
| *Import* | *71,6* | *181,0* | *131,5* |
| **Fransiya** | **148,6** | **381,5** | **253,8** |
| *Eksport* | *5,3* | *2,1* | *8,9* |
| *Import* | *143,3* | *379,4* | *244,9* |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | **218,2** | **204,8** | **223,7** |
| *Eksport* | *187,2* | *157,0* | *166,2* |
| *Import* | *31,0* | *47,8* | *57,5* |
| **Gruziya** | **100,6** | **126,3** | **205,5** |
| *Eksport* | *25,2* | *31,1* | *35,2* |
| *Import* | *75,4* | *95,2* | *170,3* |
| **Italiya** | **144,9** | **176,1** | **201,0** |
| *Eksport* | *4,2* | *19,0* | *13,6* |
| *Import* | *140,7* | *157,1* | *187,4* |

# TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

*(2024- yil yanvar –oktabr mln AQSH doll.)**




Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 16,1 % ulush bilan 3 363,9 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchtepa tumani 2,9 % ulush bilan 598,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

## TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

*(yanvar-oktabr, mln AQSH dollari, ulushi)*




2024- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,8 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,2 % ga koʻpaydi.

Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,2 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 59,2 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-oktabr oylari holatiga koʻra, 8 523,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 1 882,6 mln AQSH dollariga yetgan boʻlsa, import 6 640,7 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## TOSHKENT SHAHRINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI *(2024- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)*

| | |
|---|---|
| Rossiya – 24,5 | Qozogʻiston – 7,3 |
| Turkmaniston – 3,6 | Belarus – 1,5 |
| Tojikiston – 1,2 | Qirgʻiz Respublikasi – 1,1 |
| Ozarbayjon – 0,5 | Ukraina – 0,5 |
| Armaniston – 0,1 | Moldova – 0,01 |

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (24,5 %), Qozogʻiston (7,3 %) hamda Turkmaniston (3,6 %) davlatlari bilan qayd etildi.

# TOSHKENT SHAHRINING YEOIIGA A’ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

*(yanvar-oktabr, mln AQSH dollari)*

**Rossiya**
TSA – 5 123,0
Eksport – 928,2
Import – 4 194,8

**Qozog‘iston**
TSA – 1 532,4
Eksport – 339,1
Import – 1 193,3

**Belarus**
TSA –311,4
Eksport – 47,9
Import – 263,5

**Qirg‘iz Respublikasi**
TSA – 223,7
Eksport – 166,2
Import – 57,5

**Armaniston**
TSA – 13,6
Eksport – 10,1
Import – 3,5



**Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi**

34,4 %

**Jami eksportdagi ulushi**

33,4 %

**Jami importdagi ulushi**

34,7 %

Toshkent shahrining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a’zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 7 204,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 1 491,5 mln AQSH dollari, import hajmi esa 5 712,6 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIIning a’zo davlatlari (Rossiya, Qozog‘iston, Belarus, Qirg‘iz Respublikasi va Armaniston) o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta’minlangan bo‘lib, yagona bojxona tizimiga ega bo‘lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

# TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTI

*(2024- yil yanvar-oktabr)*

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘sishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, Toshkent shahrining eksportyorlar soni 2 165 taga yetdi va ular tomonidan 4 459,9 mln AQSH dollari *(nomonetar oltindan tashqari)* qiymatidagi *(2023- yilning mos davriga nisbatan 8,7 % ga ko‘paydi)* tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

## XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

*(2024- yil yanvar-oktabr ulushi % da)*




*Toshkent shahrida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



# TOSHKENT SHAHRINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*

| XSST tarkibi | Mln AQSH dollari | | O‘zgarish sur’ati, % da | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 |
| **Jami eksport** | **4 102,0** | **4 459,9** | **107,7** | **108,7** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 203,0 | 163,0 | 139,6 | 80,3 | 4,9 | 3,7 |
| Ichimliklar va tamaki | 68,0 | 81,1 | 99,0 | 119,2 | 1,7 | 1,8 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 46,5 | 41,1 | 72,3 | 88,3 | 1,1 | 0,9 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 141,0 | 219,3 | 84,2 | 155,5 | 3,4 | 4,9 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,5 | 1,8 | 23,9 | 355,2 | 0,0 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 337,5 | 300,5 | 88,9 | 89,1 | 8,2 | 6,7 |
| Sanoat tovarlari | 711,9 | 796,0 | 99,9 | 111,8 | 17,3 | 17,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 387,7 | 381,0 | 148,9 | 98,3 | 9,5 | 8,6 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 174,6 | 155,4 | 137,8 | 89,0 | 4,3 | 3,5 |
| Boshqa tovarlar | 35,6 | 35,7 | 0,0 | 100,2 | 0,9 | 0,8 |
| *shu jumladan: nomonetar oltin* | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Xizmatlar | 1 995,7 | 2 285,0 | 106,2 | 114,5 | 48,7 | 51,2 |

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 48,9 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (17,9 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (8,6 %) va kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (6,7 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

*O‘zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo‘lsa, jo‘natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.*

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % ga kamaygan.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI *(yanvar-oktabr, mln AQSH dollari, ulushi)*




2024- yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Afg‘oniston, Qozog‘iston, Turkiya, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi kabi davlatlar bo‘lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 65,7 % ni tashkil etdi.

## TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2024- yil yanvar-oktabr, % da)*





# TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI *(yanvar-oktabr)*

| Davlatlar | Mln AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | Egallab turgan o‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2023-y. | 2024-y. | 2023-y. | 2024-y. | 2023-y. | 2024-y. |
| Rossiya | **872,8** | **928,2** | 105,9 | 106,3 | 1 | 1 |
| XXR | **615,6** | **624,9** | 91,0 | 101,5 | 2 | 2 |
| Afg‘oniston | **304,6** | **350,5** | 116,1 | 115,1 | 5 | 3 |
| Qozog‘iston | **324,0** | **339,1** | 104,1 | 104,7 | 4 | 4 |
| Turkiya | **327,5** | **330,6** | 119,2 | 100,9 | 3 | 5 |
| Tojikiston | **209,1** | **192,2** | 111,4 | 91,9 | 6 | 6 |
| Qirg‘iz Respublikasi | **157,0** | **166,2** | 83,9 | 105,9 | 7 | 7 |
| BAA | **143,6** | **123,8** | 200,0 | 86,2 | 9 | 8 |
| Buyuk Britaniya | **111,3** | **123,0** | 161,8 | 110,5 | 10 | 9 |
| AQSH | **75,3** | **122,0** | 160,9 | 162,0 | 12 | 10 |
| Litva | **49,2** | **118,2** | 156,2 | 240,2 | 14 | 11 |
| Ozarbayjon | **46,3** | **72,7** | 83,3 | 157,0 | 16 | 12 |
| Kanada | **28,1** | **52,1** | 155,2 | 185,4 | 23 | 13 |
| Latviya | **47,6** | **51,4** | 108,2 | 108,0 | 15 | 14 |
| Belarus | **33,1** | **47,9** | 76,4 | 144,7 | 18 | 15 |
| Chexiya | **39,2** | **43,8** | 199,0 | 111,7 | 17 | 16 |
| Gruziya | **31,1** | **35,2** | 123,4 | 113,2 | 20 | 17 |
| Germaniya | **28,6** | **32,1** | 64,7 | 112,2 | 22 | 18 |
| Turkmaniston | **90,8** | **31,3** | 111,1 | 34,5 | 11 | 19 |
| Shveysariya | **19,3** | **30,9** | 66,1 | 160,1 | 27 | 20 |

# TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

*(2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH doll.)*




Toshkent shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 23,3 % bilan 1 040,1 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 1,3 % bilan 56,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

# TOSHKENT SHAHRINING IMPORTI

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 16 450,3 mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,1 % ga ko‘paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (27,4 %), sanoat tovarlari (15,7 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (13,8 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

## XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI

*(2024- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)*




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1 238,9 mln AQSH dollariga ko‘paydi va 16 450,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1 355,3 mln AQSH dollariga yetdi.



## TOSHKENT SHAHRINING XSST BOʻYICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-oktabr, yillar kesimida)*

| XSST tarkibi | Mln AQSH dollari | | Oʻsish surʼati, % da | | Umumiy hajmga nisbatan. % da | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 |
| **Jami import** | **15 211,4** | **16 450,3** | **125,7** | **108,1** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | **1 390,3** | **1 496,6** | 110,2 | 107,6 | 9,1 | 9,1 |
| Ichimliklar va tamaki | **147,1** | **178,7** | 135,1 | 121,5 | 1,0 | 1,1 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari | **220,7** | **211,0** | 93,1 | 95,6 | 1,4 | 1,3 |
| Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar | **1 266,1** | **2 244,2** | 176,1 | 177,3 | 8,3 | 13,6 |
| Hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar | **179,3** | **148,2** | 112,6 | 82,7 | 1,2 | 0,9 |
| Kimyoviy vositalar va shunga oʻxshash mahsulotlar | **2 276,5** | **2 276,4** | 104,8 | 100,0 | 15,0 | 13,8 |
| Sanoat tovarlari | **2 620,1** | **2 582,4** | 107,7 | 98,6 | 17,2 | 15,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | **4 477,0** | **4 501,8** | 128,1 | 100,6 | 29,4 | 27,4 |
| Turli xil tayyor buyumlar | **773,3** | **833,9** | 110,5 | 107,8 | 5,1 | 5,1 |
| Boshqa tovarlar | **862,4** | **621,8** | 0,0 | 72,1 | 5,7 | 3,8 |
| Xizmatlar | **998,6** | **1 355,3** | 122,4 | 135,7 | 6,6 | 8,2 |

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko‘ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-oktabr natijalariga ko‘ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 40,4 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga ko‘paydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
*(yanvar-oktabr, mln AQSH dollari, ulushi)*




2024- yil yanvar-oktabr oylarida Toshkent shahrida 181 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog‘iston, Turkiya, Turkmaniston, Germaniya va Hindiston) jami importning 69,7 % ni tashkil etdi.

## TOSHKENT SHAHAR IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2024- yil yanvar-oktabr, % da)*





# TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O‘SISH SUR’ATLARI

*(yanvar-oktabr)*

| Davlatlar | Mln AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | Umumiy hajmdagi o‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2023- y. | 2024- y. | 2023- y. | 2024- y. | 2023- y. | 2024- y. |
| Rossiya | **3 060,2** | **4 194,8** | 108,3 | 137,1 | 2 | 1 |
| XXR | **4 191,7** | **3 701,4** | 157,9 | 88,3 | 1 | 2 |
| Qozog‘iston | **1 051,2** | **1 193,3** | 92,0 | 113,5 | 3 | 3 |
| Turkiya | **964,2** | **752,3** | 127,3 | 78,0 | 4 | 4 |
| Turkmaniston | **686,6** | **725,6** | 163,6 | 105,7 | 5 | 5 |
| Germaniya | **460,0** | **532,3** | 84,7 | 115,7 | 6 | 6 |
| Hindiston | **318,0** | **365,6** | 90,9 | 115,0 | 8 | 7 |
| AQSH | **210,2** | **334,3** | 93,6 | 159,0 | 14 | 8 |
| Koreya Respublikasi | **306,7** | **286,0** | 90,2 | 93,3 | 9 | 9 |
| BAA | **232,9** | **277,1** | 84,0 | 119,0 | 11 | 10 |
| Belarus | **234,4** | **263,5** | 120,6 | 112,4 | 10 | 11 |
| Fransiya | **379,4** | **244,9** | 264,8 | 64,5 | 7 | 12 |
| Chexiya | **137,5** | **232,8** | 191,2 | 169,3 | 19 | 13 |
| Litva | **222,9** | **210,0** | 140,4 | 94,2 | 12 | 14 |
| Italiya | **157,1** | **187,4** | 111,7 | 119,3 | 16 | 15 |
| Gruziya | **95,2** | **170,3** | 126,3 | 178,9 | 24 | 16 |
| Yaponiya | **55,7** | **169,7** | 100,4 | 304,7 | 34 | 17 |
| Polsha | **150,2** | **152,3** | 189,6 | 101,4 | 17 | 18 |
| Avstriya | **84,4** | **146,5** | 177,7 | 173,6 | 26 | 19 |
| Irlandiya | **93,5** | **143,9** | 155,8 | 153,9 | 25 | 20 |

## TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

*(2024- yil yanvar-oktabr, mln AQSH doll.)*




Toshkent shahrining importi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 14,1 % bilan 2 323,8 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchtepa tumani 2,9 % bilan 480,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi.